

**KORXONALARDA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ KASSADAGI
PUL MABLAG‘LARI VA PUL EKVIVALENTLARI BUXALTERIYA HISOBI
VA AUDITI**

Toshimov Azizbek

Ilmiy rahbar, Samarqand iqtisodiyot va serves institute Biznesni boshqarish kafedrası tadqiqotchisi

ORCID: 0000-0003-4835-8768

Email: tsohimovazizbek@gmail.com

Pardayeva Madina

BXS-521 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonalarda pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari hisobining nazariy asoslari yoritilgan. Unda pul mablag‘lari tushunchasi, ularning iqtisodiy mohiyati, tasnifi hamda buxgalteriya hisobidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, pul ekvivalentlarining mazmuni, ularni tan olish mezonlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida hisobga olish tartibi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida korxonalarda pul oqimlarini samarali boshqarishning ahamiyati hamda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pul mablag‘lari, pul ekvivalentlari, buxgalteriya hisobi, pul oqimi, moliyaviy hisobot, aktivlar, xalqaro standartlar.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические основы учета денежных средств и их эквивалентов на предприятиях. Рассматриваются понятие денежных средств, их экономическая сущность, классификация и роль в бухгалтерском учете. Также изучены содержание денежных эквивалентов, критерии их признания и порядок учета на основе международных стандартов финансовой

отчетности. В ходе исследования освещается значение эффективного управления денежными потоками на предприятиях, а также вопросы совершенствования системы бухгалтерского учета.

Ключевые слова: денежные средства, денежные эквиваленты, бухгалтерский учет, денежный поток, финансовая отчетность, активы, международные стандарты.

Annotation: This article discusses the theoretical foundations of accounting for cash and cash equivalents in enterprises. It examines the concept of cash, its economic essence, classification, and role in accounting. In addition, the content of cash equivalents, the criteria for their recognition, and accounting procedures based on International Financial Reporting Standards are analyzed. The study also highlights the importance of effective cash flow management in enterprises and issues related to improving the accounting system.

Keywords: cash, cash equivalents, accounting, cash flow, financial reporting, assets, international standards.

KIRISH

Globalashuv, raqamli iqtisodiyot va moliyaviy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari hisobini to‘g‘ri tashkil etish korxonalarining faoliyatining uzluksizligini ta‘minlash, uning likvidligini saqlash hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Pul mablag‘lari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning eng likvid aktivlari sifatida barcha xo‘jalik operatsiyalarining asosini tashkil etadi. Ular orqali hisob-kitoblar amalga oshiriladi, majburiyatlar bajariladi va investitsion faoliyat moliyalashtiriladi.

Pul mablag‘lari bilan bir qatorda pul ekvivalentlari ham korxonaning moliyaviy boshqaruvida muhim o‘rin egallaydi. Pul ekvivalentlari qisqa muddatli, yuqori likvidli hamda tezda ma‘lum miqdordagi pul mablag‘lariga aylantirilishi mumkin bo‘lgan

moliyaviy aktivlar hisoblanadi. Ularni to‘g‘ri tasniflash va hisobga olish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Aks holda, noto‘g‘ri tasniflash korxonaning real moliyaviy holatini noto‘g‘ri aks ettirishi mumkin.

Pul mablag‘lari korxonaning iqtisodiy faoliyatini ta‘minlovchi eng muhim aktivlardan biri bo‘lib, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va moliyaviy operatsiyalarning uzluksizligini ta‘minlaydi. Ular nafaqat hisob-kitob vositasi, balki qiymat o‘lchovi va jamg‘arish vositasi sifatida ham muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Shu sababli pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining iqtisodiy mohiyatini chuqur o‘rganish buxgalteriya hisobi hamda audit tizimini samarali tashkil etish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy nazariyada pul mablag‘lari tushunchasi keng va tor ma‘nolarda talqin qilinadi. Keng ma‘noda pul mablag‘lari iqtisodiyotdagi barcha likvid moliyaviy resurslarni o‘z ichiga olsa, tor ma‘noda ular naqd pul va bank hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan iborat bo‘ladi. Kieso Donaldning fikricha, pul mablag‘lari korxonaning operatsion faoliyatini amalga oshirishdagi asosiy vosita bo‘lib, uning samaradorligi ko‘p jihatdan pul oqimlarini boshqarish darajasiga bog‘liq.

Pul mablag‘larining iqtisodiy mohiyatini chuqurroq anglash uchun ularning asosiy funksiyalariga e‘tibor qaratish zarur. Birinchidan, pul mablag‘lari to‘lov vositasi sifatida korxonaning barcha majburiyatlarini bajarishda xizmat qiladi. Ikkinchidan, ular qiymat o‘lchovi sifatida iqtisodiy operatsiyalarni yagona birlikda ifodalash imkonini beradi. Uchinchidan, pul mablag‘lari jamg‘arish vositasi sifatida moliyaviy resurslarni saqlash va ko‘paytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ular korxonaning moliyaviy barqarorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimida pul mablag‘lari tushunchasi kengayib, unga pul ekvivalentlari ham kiritilmoqda. IAS 7 “Statement of Cash Flows” xalqaro standartiga ko‘ra, pul ekvivalentlari qisqa muddatli, yuqori likvidli hamda tezda ma‘lum miqdordagi pulga aylantiriladigan investitsiyalar hisoblanadi. Odatda bunday investitsiyalarning

muddati uch oydan oshmaydi.

Pul ekvivalentlarini pul mablag‘laridan ajratib turuvchi asosiy jihat ularning yuqori likvidligi va qiymatining nisbatan barqarorligidir. Qisqa muddatli depozitlar, davlat qimmatli qog‘ozlari hamda banklararo joylashtirilgan mablag‘lar pul ekvivalentlariga misol bo‘la oladi. Weygandt Jerry pul ekvivalentlarini korxonaning qisqa muddatli likvidligini ta‘minlovchi va moliyaviy risklarni kamaytiruvchi muhim vosita sifatida baholaydi.

Pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarini hisobga olish jarayoni ularning to‘g‘ri tasniflanishiga bevosita bog‘liq. Ushbu aktivlar odatda quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- naqd pul mablag‘lari;
- bank hisobvaraqlaridagi mablag‘lar;
- chet el valyutasidagi mablag‘lar;
- pul ekvivalentlari.

Har bir guruh o‘ziga xos hisobga olish xususiyatlariga ega bo‘lib, ularni alohida nazorat qilishni talab etadi. Naqd pul mablag‘lari korxonada kassasida saqlanadigan pul vositalaridan iborat bo‘lib, eng yuqori likvidlik darajasiga ega. Bank hisobvaraqlaridagi mablag‘lar esa hisob-kitob, joriy va maxsus hisobvaraqlarda saqlanadi hamda asosiy moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, sintez, taqqoslash, tizimli yondashuv va iqtisodiy-statistik usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi.

Pul ekvivalentlari qisqa muddatli, tez naqdlashtiriladigan va qiymat o‘zgarishi riski past bo‘lgan moliyaviy aktivlar sifatida o‘rganildi. IAS 7 standartiga muvofiq, ular odatda uch oygacha bo‘lgan qisqa muddatli investitsiyalar sifatida e‘tirof etiladi.

Tadqiqot davomida “Hamkorbank” ATB amaliyoti misolida pul mablag‘lari harakati va ularni boshqarish mexanizmlari tahlil qilindi. Bank faoliyatida naqd pul operatsiyalari, mijozlar hisobvaraqlari, depozitlar va elektron to‘lovlar orqali pul mablag‘larining uzluksiz

harakati kuzatiladi. Shu sababli bank tizimida pul mablag‘larini real vaqt rejimida hisobga olish va nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

A. Aripovning ilmiy qarashlariga ko‘ra, resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv pul mablag‘lari boshqaruviga ham bevosita tatbiq etiladi, chunki pul resurslaridan oqilona foydalanish korxonalar rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarini to‘g‘ri tasniflash buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi. Bu esa pul oqimlari hisobotini aniq shakllantirish va audit samaradorligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekistonlik olim S. Umarov pul mablag‘larini korxonaning eng yuqori likvid aktivlari sifatida baholab, ularni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikning asosiy sharti ekanligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, pul mablag‘lari harakati ustidan nazoratni kuchaytirish korxonaning to‘lov qobiliyatini oshiradi va moliyaviy risklarni kamaytiradi.

B. G‘ofurov esa pul mablag‘lari hisobi tizimini takomillashtirish korxonaning moliyaviy natijalari aniqligini oshirishini asoslab beradi. Olim pul mablag‘larini nafaqat hisob obyektiga, balki boshqaruv vositasi sifatida ham ko‘rib chiqadi. Bu yondashuv zamonaviy boshqaruv hisobi tamoyillariga mos keladi.

A. Raxmatov tomonidan taklif etilgan tasniflash yondashuviga ko‘ra, pul mablag‘lari funksional vazifasiga qarab operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatga xizmat qiluvchi mablag‘larga ajratiladi. Ushbu tasnif IAS 7 standartida keltirilgan pul oqimlari klassifikatsiyasiga to‘liq mos keladi.

M. Saidov pul ekvivalentlarini yuqori likvidlik va minimal risk darajasiga ega bo‘lgan qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar sifatida tavsiflaydi. Bu yondashuv xalqaro amaliyot bilan uyg‘un bo‘lib, pul oqimlarini samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rus iqtisodchisi V. Kovalev pul mablag‘lari boshqaruvini korxonada moliyaviy strategiyasining ajralmas qismi sifatida baholab, pul oqimlarini optimallashtirish orqali korxonada qiymatini oshirish mumkinligini qayd etadi. Ushbu fikr bank tizimi uchun ayniqsa dolzarbdir, chunki bank faoliyatida pul mablag‘lari asosiy resurs hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Hamkorbank” ATB faoliyatida pul mablag‘lari va ularning boshqaruvi markaziy o‘rin tutadi. Mijozlar hisobvaraqlari, depozitlar, kredit operatsiyalari hamda elektron to‘lov tizimlari orqali pul mablag‘larining doimiy harakati kuzatiladi. Bu esa yuqori aniqlikdagi hisob va samarali nazorat tizimini talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari korxonada hamda banklar faoliyatining eng muhim moliyaviy resurslari hisoblanadi. Ularni to‘g‘ri tasniflash va samarali boshqarish korxonaning likvidligi, moliyaviy barqarorligi hamda to‘lov qobiliyatini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarini hisobga olish moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, audit jarayonida moliyaviy nazorat samaradorligini kuchaytiradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, pul mablag‘larini noto‘g‘ri tasniflash yoki hisobga olish likvidlik muammolari va moliyaviy xatoliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. Pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari hisobini xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish;
2. Elektron to‘lov tizimlari va avtomatlashtirilgan hisob dasturlaridan samarali foydalanishni kengaytirish;
3. Pul oqimlari monitoringini real vaqt rejimida amalga oshirish mexanizmlarini joriy etish;
4. Bank va korxonalarda ichki audit tizimini kuchaytirish;
5. Moliyaviy risklarni kamaytirishga qaratilgan zamonaviy boshqaruv usullarini qo‘llash.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarini samarali boshqarish korxonada hamda banklarning moliyaviy barqarorligini

ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli ularni xalqaro standartlar asosida hisobga olish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2016. – <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019. – <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2021. – <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent, 2023. – <https://lex.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-son Farmoni "Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida". – Toshkent, 2020.
6. International Accounting Standards Board. IAS 7 – Statement of Cash Flows. – London: IFRS Foundation, 2021.
7. International Financial Reporting Standards (IFRS). – London: IFRS Foundation, 2021.
8. International Standards on Auditing (ISA). – New York: IFAC, 2021.
9. Abdulkarimov B.A. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 356 b
10. Axmedov, A.R. Banklarda buxgalteriya hisobi. – Toshkent: Moliya, 2021. – 412 b.
11. Ergashev, Q.Q. Auditorlik faoliyati asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 284 b.
12. G'ulomov, S.S. Moliyaviy tahlil asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 318 b.
13. Isroilov, J.I. Tijorat banklarida audit. – Toshkent: Moliya, 2022. – 336 b.
14. Karimov, F.M. Korxonalarda pul mablag'lari hisobi. – Toshkent: Fan, 2021. – 295 b.
15. Qodirov, R.X. Moliyaviy nazorat va audit. – Toshkent: Universitet, 2020. – 344 b.

16. Raximov, T.A. Bank auditining zamonaviy usullari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 301 b.
17. Tursunov, U.B. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari. – Toshkent: Moliya, 2021. – 387 b.
18. Yuldashev, N.A. Buxgalteriya hisobi va audit. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 352 b.
19. Rasulov, M.M. Tijorat banklarida moliyaviy boshqaruv. – Toshkent: Moliya, 2020. – 298 b.
20. Nurmatov, A.A. Pul oqimlari tahlili. – Toshkent: Fan, 2021. – 276 b.
21. Salimov, H.S. Moliyaviy hisobot va tahlil. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 310 b.
22. Usmonov, D.R. Korporativ audit. – Toshkent: Universitet, 2021. – 287 b.
23. Jalolov S.B. Ichki audit va nazorat tizimi – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 332 b
24. Ruzmetov, T.A. Tijorat banklarida risklarni boshqarish. – Toshkent: Moliya, 2022. – 340 b.
25. Eshonqulov, F.B. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 264 b.
26. Mamatov, U.A. Buxgalteriya schyotlari va provodkalar. – Toshkent: Fan, 2020. – 288 b.
27. <https://lex.uz>
28. <https://cbu.uz>
29. <https://ifrs.org>
30. <https://www.mf.uz>
31. <https://scholar.google.com>
32. <https://www.sciencedirect.com>
33. <https://www.researchgate.net>
34. <https://www.jstor.org>
35. <https://www.mckinsey.com>